



MOTURIDIYLIK

THE MATURIDIYYA - الماتريدية - МАТУРИДИЗМ

Narsalarning asl mohiyatini
bilishga olib boradigan yo'llar - hissiy anglash,
rost xabar va aqlidir.



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

- Музаффар КОМИЛОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент
- Нуриддин ХОЛИҚНАЗАРОВ** – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий
- Шоазим МИНОВАРОВ** – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори
- Давронбек МАХСУДОВ** – тарих фанлари доктори, доцент
- Зоҳиджон ИСЛОМОВ** – филология фанлари доктори, профессор
- Аҳаджон ҲАСАНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор
- Шовосил ЗИЁДОВ** – тарих фанлари доктори, доцент
- Жамолиддин КАРИМОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
- Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ** (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори
- Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ** (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори
- Назир Мухаммад АЙЁД** (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азхар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби
- Режеп ТУЗЖУ** (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети ҳузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори
- Аширбек МУМИНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси
- Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ** (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири
- Дониёр МУРАТОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент
- Одил ЭРНАЗАРОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитасининг 2023 йил 7 мартдаги 03-07/1503-сонли ҳулосаси асосида тайёрланди.

МУНДАРИЖА

- Nigora Yusupova.** Исломда гендер тенгликнинг ўзига хос тамойиллари3
- Shoislom Akmalov.** Янги Ўзбекистон маърифий тақомилида илмий марказларнинг ўрни12
- Ilhomjon Bekmirzayev, Azamkhan Kambarov.** “Ҳидоя” асарининг ёзилиш тарихи ва унинг турли тиллардаги таржималари19
- Nematulla Nasrullayev.** Убайдуллоҳ ибн Масъуднинг “Тавзиҳ” асари манбалари ҳақида29
- Muhabbatkhan Agzamova.** “Тарих ар-Русул вал-мулк” асарида ислом манбалари асосидаги ривоятларнинг баён этилиши41
- Nigora Khakimova.** “Маҳосин” асарида енгиллаштириш тамойилининг қўлланилиши48
- Bakhodir Daminov.** Жамиятда диний мутаассибликни вужудга келтирувчи турли омиллар таҳлили55
- Bakhodir Pirmukhamedov.** Маҳмуд Замахшарийнинг “Рабъ ал-аброр” асарининг методологияси65
- Akhmadkhan Alimov.** Мотуридий уламоларининг калом илми ривожига қўшган ҳиссаси72
- Abdulaziz Yakhshilikov.** Сабаби нузул илми ривожланиш босқичларини тадқиқ этишнинг назарий масалалари83
- Ikhtiyor Abdurahmonov.** “Шарҳ ат-Таъвилот” асари қўлёзмаларининг манбашунослик тавсифи91
- Mamurjon Erkayev.** Ижара ақди билан боглик оятлар таҳлили98
- Nodir Shomirzayev.** Реабилитация тушунчасининг шаклланиши ва диний реабилитациянинг ривожланиш тарихи107
- Ulugbek Jorayev.** Туркия тарихида мотуридийлик таълимотининг ривожланиш босқичлари таҳлили118
- Jasurbek Abduqodirov.** The role of Imam Maturidi's mausoleum in the development pilgrimage tourism in Uzbekistan124
- Pirnazar Rajapov.** Saljuqiylar davlatining shakllanish jarayoni (1038–1157)130
- Абу Мансур Мотуридий** (тарихий романдан парча)140

Pirnazar S. RAJAPOV,

*Doctoral student, IRCICA Department of the
International Islamic Academy of Uzbekistan.*

11, A.Kadiri str. 100011,

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: raiapovpimazar@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023-1/16

**SALJUQIYLAR DAVLATINING
SHAKLLANISH JARAYONI
(1038–1157)**

**THE FOUNDATION PROCESS OF THE
SELJUK SULTANATE
(1038–1157)**

**ПРОЦЕСС СОЗДАНИЯ ГОСУДАРСТВА
СЕЛЬДЖУКИДОВ
(1038–1157)**

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor yo'nalishida O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish maqsadlari belgilab berilgan. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, Saljuqiylar sulolasi (1040–1308) hukm yuritgan davr ham O'zbekiston tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki mazkur sulolaning kelib chiqish tarixi va davlatchilik asoslarining shakllanish jarayoni Movarounnahr hududlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sulola vakillari amalga oshirgan buyuk ishlari bilan tarix zarvaralaridan o'rin olgan.

Saljuqiylar davlati 766–1055-yillarda Kaspiy va Orol dengizi oralig'ida hukm surgan o'g'uz yabg'u davlati parchalangach, undan ajralib chiqib Movarounnahr, Xorazm va Xuroson hududlariga kelib o'mashgan o'g'uz qabilalari birlashishi natijasida yuzaga kelgan. Turkman deb ham ataladigan o'g'uzlarning bugungi kunda O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Iroq va Turkmaniston davlatlarida istiqomat qiluvchi xalqlarning ajdodlari ekanini XI asrdan hozirgacha bo'lgan davrda kechgan tarixiy jarayonlar orqali bilamiz. Shuningdek, saljuqiylar va usmoniylar sulolalarining ham o'g'uzlardan

kelib chiqqanini inobatga olsak, o'g'uzlar insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan turkiy xalq birligi ekani tushuniladi.

O'g'uzlar Sirdaryo atrofi va uning shimolidagi dashtlarda yashashgan. Ularning bir qismi shaharlarda istiqomat qilishgan. Bu o'troq o'g'uzlar jang mashg'ulotlari olib bormaganliklari hamda shahar hayotiga ixlos olib bormaganliklari uchun ko'chmanchi hamrohlari ularni mensimay "yatuk" (dangasa) deyishgan (F.Sümer, 1935:53). Darhaqiqat, ko'chmanchi o'g'uzlar o'zlarining o'troq hamrohlarga pasd nazar bilan qarashda ma'lum ma'noda haq edilar. Chunki saljuqiylar davlatini aynan ko'chmanchi o'g'uzlar tashkil qilishgan edi. Biroq ko'chmanchi o'g'uzlar ham 1071-yilgi Malazgird jangi natijasida Anadoluni fath qilib, bu o'lkada o'troqlasha boshladilar. XIII asrda o'g'uzlarning aksariyat qismi shahar va qishloqlarda yashashardi. Shu davrda Anadoluda mo'g'ul bosqinidan qochib kelgan ko'chmanchi turklar ham talaygina edi. Anadolu saljuqiylar davlati mo'g'ullar vassaliga aylanib, o'troq aholi ularga bo'ysungan bo'lsa-da, ko'chmanchi o'g'uzlar (turkmanlar) mo'g'ullarga qarshi kurashni to'xtatishmadi. Natijada turkmanlar avvaliga Kichik Osiyoda, keyin esa Eronda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishdi. Shunday qilib, turkmanlar Kichik Osiyo tarixining beyliklar davri ta'sischilari bo'lishlari bilan birga XX asr boshlarigacha Erinni idora qilishdi. Usmoniylar sulolasi ham ko'chmanchi o'g'uz (turkman) lardan kelib chiqqan.

ASOSIY QISM

Saljuq (taxminan 900–1007) o'g'uzlarning Qiniq qabilasiga mansub (Qazvinii, 1960:426). "Jome at-tavorix"da O'g'uz qabilalarining itimoiy va siyosiy mavqeyi asosida berilgan jadvalda qiniqlar 24-o'rinda, ya'ni eng oxirgi o'rinda keltirilgan. Agar bundan xulosa qiladigan bo'lsak, qiniqlar o'g'uzlarning qadimgi tarixida muhim rol o'ynamaganligi kelib chiqadi.

"Maliknoma"ga ko'ra, Saljuq yabg'uning qo'mondoni edi (Cl. Cahen, 1949:31–65). Mahmud Qoshg'ariy ham Saljuqning qo'mondon bo'lganini tasdiqlagan (Mahmud Qoshg'ariy, 1960:442). "Maliknoma"da keltirilishicha, Saljuqning bobosi Duqaq bo'lib, u "temir yoyli" laqabini olgan. Yoy turklarda hokimiyat ramzi bo'lgan. Bundan Saljuq va uning otasi Duqaqning o'g'uzlar orasida nafaqat shaxsiy xislatlari balki, nasl-nasab jihatdan ham mashhur bo'lganligi kelib chiqadi. Shubhasiz, bu

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko'chmanchi o'g'uz qabilalarining saljuqiylar urug'i atrofida birlashishi va Buyuk Saljuqiylar davlati (1038–1057) ning yuzaga kelish jarayoni yoritib berilgan. Saljuqiylarning O'g'uz yabg'u davlati (766–1055) dan ajralib chiqib, Sirdaryo quyi oqimlariga o'rnamishi hamda somoniylar (865–999), qoraxoniylar (840–1212) va g'aznaviylar (977–1186) bilan qo'shnichilik munosabatlari va ziddiyatlari ham maqoladan o'rin olgan.

Dastlab saljuqiylar g'animat evaziga somoniy Muntasinning qoraxoniy Nasr Eloqxonga qarshi kurashida yordam berishgan. Lekin Nasr Eloqxoning qasos olishidan xavfsirab, u bilan ittifoq tuzishgan. Keyinchalik qoraxoniylardan ajralib chiqqan Buxoro hokimi Ali Teginning g'aznaviylar va qoraxoniylarga qarshi yurishlarida ishtirok etishgan. Ya'ni ko'chmanchi o'g'uzlarning maqsadi faqat o'lja bo'lgan. Mahmud G'aznaviy (997–1030) hiyla yo'li bilan Arslon yabg'u (vaf 1032) ni tutqulikka mahkum qilgach, saljuqiylar orasida birlik yo'qolgan va Arslon yabg'u idorasidagi o'g'uzlar Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Iroq, Dehiston hududlariga tarqalib ketgan. Xususan, saljuqiylar Janddan dastlab Buxoro, so'ngra Xorazmga ko'chishga majbur bo'lishgan. Jand hokimi Shohmalik (vaf 1042) Xorazmda saljuqiylarni qattiom qilgach, ularning aksar qismi qirilib ketgan. Maqolada o'g'uzlarning tarqoqlik davrida boshdan kechirgan hodisalari hamda zavolga yuz tutgan O'g'uz yabg'u davlatidan Xuroson hududlariga ko'chib kelgan o'g'uzlarning saljuqiylar atrofida qayta birlashishi jarayonlari ham ochib berilgan. G'aznaviylar bilan kelishmovchilik chiqqach, o'g'uzlarning Xuroson va Iroq hududlaridagi talonchilik harakatlari va uning sabablari sharhlab o'tilgan. Shuningdek, maqolada Saljuq (taxminan 900–1007) ning nevaralari Muhammad To'g'ri (1040–1062) va Dovud Choribey (989–1060) larning Dandanakan jangida g'aznaviylar sultonining ulkan qo'shinini mag'lub etib, Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishiga zamin hozirlaganiga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'g'uz yabg'u davlati, saljuqiylar, o'g'uzlar, turkmanlar, Qiniq, Shohmalik, Nasr Eloqxon.

Abstract. This article describes the process of the unification of nomadic Oguz tribes around the Seljuk group and the emergence of the Great Seljuk Sultanate (1038–1057). Separation of the Seljuks from the Oghuz Yabgu state (766–1055) and settling down the lower reaches of the Syr Darya and their relations and conflicts with the Samanids (865–999), the Karakhanids (840–1212) and the Ghaznavids (977–1186) are also included in the article.

At first, the Seljuks helped the Samani Muntasir fight against the Karakhanid Nasr Elok Khan for booty. But they allied with Nasr to prevent enmity. Later, the Seljuks participated in the campaigns of Ali Tegin who broke away from the Karakhanids, against the Ghaznavids and the Karakhanids. That is to say, the goal of the nomadic Oguzs was only prey. After Mahmud Ghaznavi (997–1030) tricked Arslan Yabgu into captivity, the Oghuzs were spread over the regions of Transoxiana, Khorazm, Khorasan, Iraq, and Dehistan. In particular, the Seljuks were obliged to move from Jand to Bukhara and then to Khorezm. After the governor of Jand, Shahmalik, massacred the Seljuks in Khorezm, most of them died. The article also reveals the processes of the reunification of the Oghuzs around the Seljuks. The looting campaigns of the Oghuz in the regions of Khorasan and Iraq and their reasons are described. The article also reveals that Muhammad Toghrul (1040–1062) and Dawud Charibey (989–1060), the grandsons of Seljuk (900–1007), defeated the huge army of the Ghaznavid sultan in the battle of Dandanakan and they established The Seljuk sultanate.

Keywords: Oghuz Yabgu state, Seljuks, Oguzs, Turkmens, Kinik, Shahmalik, Nasr Elakhon.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс объединения кочевых огузских племен и возникновения Великого сельджуцкого султаната (1038–1057 гг.). А также в статье раскрывается отделение сельджукидов от государства Огуз Ябгу (766–1055) и их заселение низовьев Сырдарьи, дружеские отношения и конфликты с Саманидами (865–999), Караханидами (840–1212) и Газневидами (977–1186).

Сначала сельджукидов помогали саманскому мунтасиру бороться против караханидского Наср Элохана за добычу. Но они заключили союз с Насром, чтобы предотвратить вражду. Позже сельджукидов участвовали в походах правителя Бухары Али тегина, отделившегося от Караханидов, против Газневидов и Караханидов. То есть целью кочевых огузов была только добыча. Махмуд Газневи (997–1030) обманом заставил Арслана Ябгу (ум. 1032), единство среди сельджукидов было утрачено, и огузы под управлением Арслана Ябгу расселились на территории Мавераннахра, Хорезма, Хорасана, Ирака, Дехистана. В частности, сельджукидов были вынуждены переселиться из Дженда сначала в Бухару, а затем в Хорезм. После того, как правитель Дженда Шахмалик (ум. 1042) устроил резню сельджукидов в Хорезме. В статье также раскрываются события, пережитые огузами в период раздробленности, а также процессы воссоединения огузов, мигрировавших на территории Хорасана из государства Огуз-Ябгу, перешедшего на сторону завала, вокруг сельджукидов. Когда возникли разногласия с газневидами, были прокомментированы грабительские действия огузов на территории Хорасана и Ирака и его причины. В статье научно доказаны основную роль Мухаммад Тогрул (1040–1062) и Давуд Чарибей (989–1060) внуков Сельджукидов в разгромлении огромной армии газневидского султана в Битва при Данданакане и установление султаната Сельджукидов.

Ключевые слова: Государство Огуз Ябгу, Сельджукидов, огузы, туркмены, Киник, Шахмалик, Наср Илхкан.

xususiyatlar Saljuq va uning o'g'illarining o'g'uzlar jamoasini o'z atrofida birlashtirishlari va yabg'u unvonini olishlarida asosiy omillar bo'lgan.

“Maliknoma”da keltirilishicha, Saljuqbey o'g'uz yabg'usi xotinining fitnasiga uchib uni o'ldirishdan xavfsirab, askarlari va qabiladoshlari bilan qochib Jand shahri atrofilariga borib o'mashdi (Abul Farac, 1945:292–293; Ibn Asir, 1987:236; Husayniy, 1933:2). Shunday qilib, Mang'ishloq yarimorolida yashovchi o'g'uzlarning bir qismi ichki kurashlar natijasida Jandga ko'chib ketishgan. Ehtimol, X asrning I choragida Sutkent va Farob shaharlaridagi o'g'uzlarning ham Jandga ko'chib kelishiga ichki mojarolar sabab bo'lgan. X asrning boshlarida Jand shahri o'g'uz yabg'usi ixtiyorida bo'lib, u yerning aholisi musulmonlar edi. Yabg'u Jand yaqinidagi Yangikent shahrida qishlardi. Hamidulloh Qazviniyning “Tarixi guzida” asariga tayanadigan bo'lsak, saljuqiylarning Jandga kelishi taxminan X asrning so'nggi choragiga to'g'ri keladi (Qazviniy, 1960:426).

Somoniylar davlatiga 999-yil qoraxoniylardan Nasr ibn Ali Eloqxon (vaf. 1012–1013) tomonidan barham berilib, amirning oila a'zolari asir qilingan (O.Pritsak, 1977:254–255). Somoniylar Nuh ibn Mansurning o'g'illaridan Abu Ibrohim tutqunlikdan qochib, Xorazmga bordi va atrofiga o'z tarafdorlarini to'play boshladi. Abu Ibrohim hojibi Arslon Baluni Buxoroga yubordi. Arslon Baluning qoraxoniylarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlari natijasida Abu Ibrohim Buxoroga kelib, Muntasir nomi bilan taxtga chiqdi. Lekin Eloqxon yaqinlashganini eshitgach, Xurosonga qaytdi. Ketma-ket mag'lubiyatlar natijasida Abu Ibrohim 1001-yil o'g'uzlardan yordam olish maqsadida bir muddat ular bilan kun kechirdi. Bu orada O'g'uz yabg'usi Islomni qabul qiladi va Abu Ibrohim Muntasir bilan do'stlik aloqalarini o'rnatadi (Gardizi, 1937:50). “Maliknoma”ga ko'ra, o'sha vaqtdagi yabg'u Saljuqning o'g'li Isroil bo'lgan. Gardiziyning qaydlari o'g'uzlarning salmoqli qismini atrofiga to'plagan saljuqiylar o'zlarini o'g'uzlarning yetakchisi sanab, o'z qabiladoshlaridan birini yabg'u etib saylaganini ko'rsatadi. Bu hodisa Yangikentdagi O'g'uz yabg'u davlatining qulashi jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, saljuqiylar O'g'uz yabg'u davlatini davom ettirgan oxirgi sulola bo'lishgan. Gardiziyning qaydlariga tayanadigan bo'lsak, saljuqiylarning Islomga kirishi 1001-yilga to'g'ri keladi. “Maliknoma”ga ko'ra, Saljuq bu paytda tirik edi. Saljuq tirik bo'la turib, uning o'g'li yabg'u bo'lganini Saljuqning keksayib qolganiga bilan izohlashimiz mumkin.

Saljuqning to'rt nafar (ba'zi manbalarda 5 nafar) o'g'li bo'lib, ulardan biri o'smirlik chog'ida vafot etgan va uning ismi manbalarda keltirilmagan. Bu Ibrohim Yinalning otasi Yusuf ekanligi taxmin qilinadi (I. Kafesoglu, 1958:121).

Qolgan o'g'lining ismlari Isroil, Mikoil va Muso edi (Reşidud-din, 2010:71). Lekin “Jome at-tavorix”da Saljuqning beshta o'g'li bo'lgani va beshinchisi Yunus ekani qayd qilingan (Reşidud-din, 2010:71). Isroil manbalarda Arslon nomi bilan ham zikr qilingan bo'lib, bu uning yabg'u bo'lganidan keyin olgan unvonidir. Bir shaxsning ikkita ismi bo'lishi turkiy xalqlar orasida tarqalgan an'anadir. To'g'ri va Chori ismlarining ham unvon ekanligiga shak-shubha yo'q. To'g'rulbeyning ismi Muhammad, Choribeyning ismi Dovud bo'lgan.

Arslon Somoniy shahzoda Muntasirga yordam berishga rozi bo'ladi. Ular Samarqand tomon yurib, Samarqanddan 7 farsah (42 km) uzoqlikdagi Ko'hak mavzeida qoraxoniylar qo'shinini mag'lub etishadi (Gardizi, 1937:50). Natijada Eloqxon O'zganddan Samarqandga keldi. O'g'uzlar tunda hujumga o'tib, Eloqxonning qo'shinini tor-mor etishadi va 18 nafar qo'mondonini asir olishadi (Gardizi, 1937:50). O'g'uzlar katta g'animatni qo'lga kiritishdi. Bu hodisa 1003-yil avgustda sodir bo'ldi. somoniylar ortga qaytarkan, o'g'uzlar asirlarni ozod qilib, Eloqxondan uzr so'ramoqchi ekani haqidagi mish-mish tarqaldi. Natijada Muntasir 600 otliq va 400 piyoda askarlari bilan o'g'uzlardan ajralib, muzlagan Jayhunni kechib o'tadi va Xurosonga qaytadi. O'g'uzlar uni qo'lga olish uchun ta'qib qilishdi, biroq muzlar eriy boshlagani sababli Jayhunni kechib o'ta olishmadi (Gardizi, 1937:50). O'g'uzlarning maqsadi faqat g'animat edi. Ular Eloqxonning kuch to'plab qaytishidan xavfsirab, asirlarni ozod qilish va uzr so'rash orqali u bilan bitim tuzish payiga tushishgan.

Jayhun sohilidagi Omulda uzoq qolmagan Abu Ibrohim o'g'uzlardan xavfsirab, Xuroson sarhadlarida ko'chib yuradi va takror Movarounnahrqa kirib, Dabusiya Buxoro voliyisni mag'lub etadi. Bu g'alabadan so'ng Abu Ibrohimning atrofiga katta kuch to'plandi, ular orasida o'g'uzlarning muhim bir guruhi bo'lgan saljuqiylar ham bor edi. O'g'uzlar yordamida Abu Ibrohimning kuch-qudrati ortdi. Somoniylar shahzodasi yana kuchayib, yulduzi porlayotganini ko'rgan Eloqxon ularga qarshi qo'shin tortdi. 1004-yil mayda Samarqand yaqinida bo'lgan muhorabada Eloqxon takror yengilib, ortga chekindi. O'g'uzlar katta g'animat qozonishdi. Ular Abu Ibrohimdan ajralib yurtiga qaytishdi.

Eloqxon yurtiga qaytgach yana askar yig'ib, Abu Ibrohimga qarshi qo'shin tortdi. Ahmad Maniniyning ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax va Xovos oralig'idagi Ustrushonada bo'lgan jangda Somoniylar shahzodasi yengildi. Chunki, oldingi jangda katta g'animat qozongan o'g'uzlarning aksari o'z yurtiga qaytib ketishgandi. Buning ustiga, jang boshlanarkan, Abu Ibrohim qo'shini tarkibidagi Abu Hasan Toq boshchiligidagi 5000 kishilik Saljuqiylar harbiy bo'linmasi qoraxoniylar tarafiga o'tib ketgan (F.Sümer, 1935:65). Lekin Gardiziy jangda o'g'uzlar ishtirok etgani haqida qayd qilmagan (Gardiziy, 1937:51). Jang maydonini tark etgan Abu Ibrohim sol orqali Jayhunni kechib o'tib, Xurosonga keldi. Bundan xabar topgan Mahmud G'aznaviy darhol Abu Ibrohimga qarshi qo'shin jo'natadi. Abu Ibrohim g'aznaviylarga bas kelishiga ishonchi komil bo'lmay, askar to'plash payiga tushgan va Xuroson, Movarounnahr hududlarida uzoq darbadarlikdan so'ng Xurosondagi Arab ibn Buhayj huzurida qo'nim topgan. U yerda Mohro'y ismli moliya ma'murining fitnasi sabab arablar qo'lida jon berdi (1004-yil yanvar). Uning o'limidan so'ng Mahmud G'aznaviy va Eloqxon erkin nafas oladigan bo'ldi.

MUHOKAMA

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Abu Ibrohimning qoraxoniylar ustidan g'alaba qozonishida o'g'uzlar katta ro'l o'ynagan. Biroq, o'g'uzlarning maqsadi asqar o'lja olish bo'lgani uchun, istalgan paytda dushman taraf safiga o'tib ketishardi.

Ebu Ibrohim masalasiga barham berilgach, Eloqxon Xurosonni ham o'z davlati sarhadlariga kiritishni istadi. Shu maqsadda u 1006-yil Mahmud G'aznaviyni Hindistonga yurishidan foydalanib, Tegin boshchiligidagi Xurosonga qo'shin yubordi. Mahmud G'aznaviyni Xurosonga yetib kelishi natijasida Eloqxonning qo'shini Saraxsa chekindi. Lekin yo'lda o'g'uz amiri Alhamas ibn Toq ularning yo'lini to'sdi. Ikki tomon o'rtasida shiddatli jang bo'lib, oxiri Tegin g'alaba qozondi. O'g'uz amiri qo'lga olinib, qatl qilindi (F.Sümer, 1935:66). U Abu Ibrohimning Eloqxonga qarshi oxirgi jangida 5000 kishilik askarlari bilan qoraxoniylar safiga o'tib ketgan Abulhasan Toq bilan ayni bir shaxsmi yoki uning o'g'li bo'lganmi, noma'lum. 1008-yil g'aznaviylar va qoraxoniylar qo'shini to'qnashgan Balh jangida Sulton Mahmud askari safida bir guruh o'g'uzlar ham bo'lgan (F.Sümer, 1935:53). Ular yuqorida nomi kelgan o'g'uz beyining askarlari bo'lganiga shubha yo'q. Bundan ma'lumki, saljuqiylardan oldin ham o'g'uzlarning bir qismi Xurosonga ko'chib o'tishgan.

1013-yil Qoraxoniylar hukmdori Nasr ibn Ali Eloqxon vafot etdi. Uning o'miga Arslon Eloqxon unvoni bilan ukasi Mansur hokimiyatga keldi. U sulolaning eng qudratli vakillaridan edi. Arslon Eloqxon Talos, Shosh, Tunkat, Binkat, Farg'ona, O'zgand, Xo'jand, Ustrushona, Samarqand, Buxoro hududlari ustidan hukm yuritgan. Biroq, 1021-yil (hijriy 411) sulola vakillaridan Ali Tegin Buxoroda mustaqil hukm yuritish boshladi (Ibn Asir, 1987:237; O.Pritsak, 1977:254–255). Ayni shu davrda Saljuqning o'g'li Arslon yabg'u idorasida saljuqiylarning Janddan janub tomon siljib Buxorodan 20 farsah shimoldagi Nur mintaqasiga o'mashganini bilamiz. Saljuqiylarning Buxoro muzofotiga kelishi Ali Tegin bilan hamkorlik qilish emasdi, balki Shohmalikning tazyiqi bilan bog'liq edi. Bizga ma'lumki, 1030-yil Jand saljuqiylarning dushmani Shohmalik idorasida edi. Saljuqiylarni Jand bilan bog'lab turgan yagona ma'naviy rishta bobolari Saljuq qabrinining u yerdaligi edi. Lekin Saljuqning vafoti sanasi bizga noma'lum.

Fransuz sharqshunosi Klod Kaen Saljuqning vafotini taxminan 1009–1010-yillar deb keltirgan (Cl. Cahen, 1949:45). Maliknomadan iqtibos olingan ilmiy tadqiqotlarda uning 100 yoki 107 yoshida vafot etgani zikr qilingan (Ibn Asir, 1987:237; S.Husayniy, 1933:2). Mikoil otasi Saljuq tirikligida qipchoqlar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgani taxmin qilinadi. Mikoilning o'g'illari To'g'ul va Choribeylarni Saljuq o'z tarbiyasiga olgan.

Ali Tegin va Arslon yabg'u mustahkam ittifoq tuzishgan. Hatto O.Pritsak Ali Tegin Buxoroni Arslon yabg'u yordamida qo'lga kiritganligi haqida taxminiy mulohazalarini bildirgan (O.Pritsak, 1977:256). Lekin manbalarda bu borada aniq dalillar keltirilmagan bo'lsa-da, O.Pritsakning fikrlari ma'lum ma'noda asosli. Chunki, Ali Teginning Qoraxoni Muhammad ibn Aliga (Arslon Eloqxonning ukasi) qarshi jangida ittifoqchisi sifatida qatnashgan Saljuqiy Arslon yabg'u uning g'alaba qozonishida hal qiluvchi ro'l o'ynagan.

Qoraxoniylarning buyuk xoni Arslon Eloqxon 1025-yil (hijriy 415) Yusuf ibn Horun (unvoni Qodirxon) foydasiga hokimiyatdan voz kechdi. Qodirxonning ukalari Ahmad va Ali Tegin unga qarshi ittifoq tuzishdi. Ahmad o'zini xon deb e'lon qilib, Bolasog'un, Xo'jand va Farg'onada mustaqil hukmronlik qila boshladi. Natijada Qodirxon Mahmud G'aznaviy bilan birlashdi. Ali Tegin g'aznaviylarga qarshi tez-tez talonchilik bosqinlari uyushtirib turganligi uchun Mahmud G'aznaviy ham u bilan qo'shniligidan mamnun emasdi. 1025-yil Mahmud G'aznaviy Jayhunni kechib o'tib Ali Tegin

sarhadlariga kirarkan, Qoshg'ardan Qodirxon ham qo'shini bilan yetib keldi. Ikki buyuk hukmdorning sivo'i ostida qolgan Ali Tegin dashtga qochdi. Uning ittifoqdoshi Arslon yabg'u ham shunday yo'l tutdi. Mahmud G'aznaviy Ali Teginni ta'qib qilish uchun hojib Bilga Teginni yubordi. Bilga Tegin uning ayoli va qizlarini asir qilib qaytdi. Saljuqiylar yabg'uga kelsak, Mahmud G'aznaviy uni o'z o'rdagohiga da'vat etdi. Arslon yabg'u davmning eng buyuk hukmdori bilan uchrashishni sharaflar sanab 300 kishilik hamrohi bilan uning qarorgohiga keldi. Mahmud G'aznaviy Arslon yabg'uning qo'shini sonidan gap ochganida Arslon qo'lidagi yoy va uchta o'qqa ishora qilgan (F.Sümer, 1935:67–68). 1038-yil Nishopurga kirgan To'g'ulbeyning ham qo'lida tortilgan yoy va belida 3 ta o'q bo'lgan (Bayhaqiy, 1945:553). Bu yabg'ulik alomati bo'lganiga shubha yo'q.

Mahmud G'aznaviy Arslon yabg'uning katta kuch–qudratga egaligini anglab, payti kelib uning o'z o'lkasiga tahdid solishidan xavfsiradi, shuningdek, Ali Teginning kuchini qirish uchun hiyla yo'li bilan yabg'uni qo'lga oldi. Arslon yabg'u dastlab G'aznaga, so'ngra Hindistonga, Mo'ltun yaqinidagi Kalinjar qal'asiga olib borilib, zindonband qilindi va umrining oxirigacha shu qal'ada qoldi.

Ba'zi muarrixlarning qaydlariga ko'ra, Arslon yabg'u jiyanlarining Xurosondagi ilk g'alabalariga qadar yashagan (Gardizi, 1937:66; Ibn Asir, 1987:237–239). Hatto, mahbus hoida yashirinch xabar yuborib, jiyanlarini g'aznaviylarga qarshi kurashni davom ettirishga undagan (Ibn Asir, 1987:239).

Arslon yabg'u Saljuqiylarning katta bobolaridan hisoblanadi. Uning ikkita o'g'li bizga ma'lum bo'lib, ismlari Qutalmish va Rasul Tegin. Rasul Tegin nomi Qoraxoniylar shahzodalaridan biri ismining o'zlashmasi bo'lsa kerak. Chunki, manbalarda o'g'uzlarning Tegin unvonidan foydalanganini uchratmaymiz.

Zohir Nishopuriyning ma'lumotlariga ko'ra, Qutalmish otasini qutqarish uchun Hindistongacha borgan (F. Sümer, 1935:68). Arslon Yabg'u Mahmud G'aznaviy tomonidan tutqun qilinishiga Saljuqiylar tomonidan munosib qarshilik ko'rsatilmagan. Chunki, Saljuqiylarda birlik yo'q edi hamda qarshilik ko'rsatishning oqibatidan qo'rqishgan. Shuningdek, Arslon yabg'uning o'g'illari hali voyaga yetmagandi. Na ular, na amakilarining o'g'illari Arslon yabg'udan qolgan o'g'uzlarga sohib chiqishgan. Aksincha, Arslon yabg'u idorasida bo'lgan 4000 o'g'uz oilasi Mahmud G'aznaviyga Saljuqiylar nazorati ostida aziyat chekishayotganini arz qilib, undan Xurosonga

ko'chib o'tishga izn so'rashgan. Ular Xurosonda o'mashgan qatdirda bexavotir bo'lislari, sultonning kuchiga kuch qo'shishlarini aytishdan ham tap tortishmagan. O'rta asrlarda aholisi o'troq tarzda yashaydigan va muntazam armiyaga ega bo'lgan musulmon davlatlarida ko'chmanchi qabilalarga daromad keltiruvchi bo'g'in sifatida qaralgan. Shu maqsadni ko'zlab, Mahmud G'aznaviy ham ularning Xurosonga ko'chib o'tishiga ruxsat bergan. Natijada 4000 o'g'uz oilasi Xurosonning Saraxs, Faroba va Obivard shaharlari atrofidagi dashtlarda qo'nim topishgan. Ularining boshida Yag'mur, Buqa, Go'ktosh va Qizilbeylar bo'lgan (Gardizi, 1937:67; Ibn Asir, 1987:237; Juzoni, 1963:247).

Mahmud G'aznaviyning O'g'uzlarga marhamati uning vazir va amirlarining e'tirozlariga sabab bo'ldi. Jumladan, Tus voliysi Arslon Jozib Mahmud G'aznaviyga o'g'uzlar kamondan o'q oza olmasligi uchun ularning bosh barmoqlarini kesishni taklif qilgan. Uning bu so'zlaridan hayratlangan sulton unga: “sen shafqatsiz, bag'ritosh ekansan”, deya javob qaytargan edi (Gardizi, 1937:67).

1027-yil Mahmud G'aznaviy Hindiston safaridan qaytarkan, unga turkmanlarning Niso, Obivard va Isfara aholisiga tajovuzidan shikoyat qilishdi. Natijada sulton Tus voliysi Arslon Jozibga maktub yozib, turkmanlarni jazolashni amr etdi. Tus voliysi qayta-qayta turkmanlar ustiga yurishga qaramay, biror natijaga erisha olmadi. Natijada 1028-yil Mahmud G'aznaviyning o'zi askar to'plab, Tusga bordi va Arslon Jozib idorasiga qo'shimcha kuchlar berib, uni yana o'g'uzlar ustiga yubordi. Faroba karvonsaroyi yaqinidagi jangda Arslon bu safar turkmanlar ustidan g'alaba qozondi. Gardiziyning ma'lumotlariga ko'ra, turkmanlardan 4000 kishi o'ldirilib, bir qismi asir olingan va qolganlari Bolqon, Dehiston tomonga qochishgan (Bayhaqiy, 1945:68; Gardizi, 1937:70–71).

Ibn Asimning ma'lumotlariga ko'ra, bu hodisa 1029-yil sodir bo'lgan. Ibn Asir o'g'uzlarning xalqqa tajovuz o'tkazishi sababini g'aznaviy ma'murlarning o'g'uzlarga zulm qilib, ularning mol-mulki va bola-chaqalarini tortib olishi bilan izohlagan (Ibn Asir, 1987:237). Tarixdan ma'lumki, davlatga bo'ysunib, soliq to'lovchi ko'chmanchilar o'z manfaatlarini ko'zlaydigan soliq yig'uvchilar va voliyar tazyiqiga uchragan. Buning ziddiga ko'chmanchilar ham imkon tug'ilishi bilan o'troq aholi ekinzorlarida chorvalarini o'tlatib, mol-mulkini talab, hatto ularga hujum qilishgani tarixiy haqiqatdir.

1029-yil Mahmud G'aznaviy buyayhiylarning zaiflashganidan foydalanib Ray shahrini ulardan tortib oldi va shahar boshqaruvini o'g'li Mas'udga topshirdi. 1030-yil Mahmud G'aznaviyning vafoti o'g'uzlar foydasiga bo'ldi. Chunki, u o'g'uz tahlikasiga qarshi tura oladigan dono hukmdor edi.

Davlat boshqaruvi Mahmud G'aznaviyning o'g'li Muhammadga o'tdi. Ukasi Mas'ud uning hukmdorligini qabul qilmadi va taxtga chiqish uchun Raydan Xuroson tomon yo'l oldi. Mas'ud o'g'uz beylaridan Yag'mumi xizmatiga oldi va qarshiliksiz hokimiyatga keldi. Yag'murning iltimosiga binoan Bolqondagi o'g'uzlarning Xurosonga qaytishlariga rozilik bildirdi hamda ularning beylari Qizil, Go'ktosh va Buqalarni ham o'z xizmatiga oldi. Sulton Mas'ud o'g'uz beylari nazoratini ham e'tibordan qochimay, ularning idorasini o'z odami Xumortoshga topshirdi.

Mas'udning otasi tomonidan badarg'a qilingan o'g'uzlarni takror xizmatiga olganini davlat arkoni ijobiy qabul qilishmadi. Mas'ud hokimiyatga kelishi bilanok Makron voliyi osiy Isoning o'miga ukasi Abulaskarni qo'yish uchun u yerga qo'shin yubordi. Qo'shin tarkibida Qizil, Go'ktosh va Buqa boshchiligidagi o'g'uzlar ham bor edi. G'aznaviylar qo'shini g'alaba qozonib, Iso o'ldirildi va o'miga Abulaskar Makron voliyi qilib tayinlandi (Bayhaqiy, 1945:242–245).

Gardiziyning ta'kidlashicha, 1031-yil Saraxs va Obivard aholisi takror o'g'uzlar zulmidan shikoyat qilishgan. Sulton Mas'ud Abu Sa'd Abdus boshchiligidagi qo'shin yubordi. Farobada jang bo'lgach, o'g'uzlar bolalarini Bolqonga yuborishdi va g'aznaviylarga qarshi to'satdan hujum qilib, ortga chekinish taktikasini qo'llay boshlashdi. Gardizi bu to'qnashuvlar natijalari haqida ma'lumot bermagan. Bayhaqiy esa bu voqea haqida umuman to'xtalib o'tmagan. Ehtimol, ular Yag'murning qo'l ostidagi o'g'uzlar bo'lishgan. Chunki, keyinchalik Nishopurda o'g'uz beylaridan yolg'iz u o'ldirilgan. Shuningdek, Yag'mur Makronga borgan beylar safida ham yo'q edi.

1031-yil sulton Mas'ud Toshi Farroshni Ray voliyi qilib tayinlab, unga Yag'mur, Qizil, Buqa va Go'ktoshbeylarni qo'lga olishni buyurdi. Ya'ni, ular Rayda Xumortosh idorasida yana davlat xizmatida davom etishardi (Bayhaqiy, 1945:266). Bayhaqiy va Ibn Asirning so'zlariga ko'ra, Yag'mur Nishopurda o'ldirilgan (Bayhaqiy, 1945:372; Ibn Asir, 1987:198). Qolganlari Makron safaridagi xizmatlari uchun afv etilgan.

Buqa va Go'ktoshlar Rayda g'aznaviylarga xizmat qilishda davom etishdi. Qizilbey va Yag'mur-

ning o'g'li Bolqonga qaytishdi. Shuningdek, Hindistonda g'aznaviy Yinal Tegin qo'shini safida ham o'g'uzlar bor edi (Bayhaqiy, 1945:402–404; 433).

Raydagi turkmanlar soni 3–4 ming atrofida edi. Saljuqiy o'g'uzlardan farqlash uchun ular Iroq o'g'uzlari (turkmanlari) ham deyiladi. Iroq turkmanlari Bolqon o'g'uzlari Yag'murning o'chini olish uchun Xurosonda harakatga kirishganidan xabar topgach, g'aznaviylarga qarshi bosh ko'tarishdi (Bayhaqiy, 1945:372). Sulton Mas'udning Iroq turkmanlarini qo'lga olish rejasi amalga oshmadi. Chunki, Bolqon o'g'uzlari 1034-yil Xurosonni egallashdi. Xuroson devoni raisi Suri sulton Mas'udga turkmanlar Ali Tegindan yordam olgani, Xorazmshoh Horun ham ularni dastaklayotgani bildirib, sultonga Xurosonga kelishi lozimligini aytgan (Bayhaqiy, 1945:431–433). Mas'ud Saraxsga yetganida turkmanlar uch qismga bo'linib Bolqon, Marv va Faroba tomon chekinishdi. Mas'ud Saraxsda ekan, Movarounnahr turkmanlari Termiz va Qo'bodiyonga hujum qilishgani va Termiz voliyi Bek Teginni o'ldirishgani xabarini oldi. Shunday qilib, o'g'uzlar uch jabhada g'aznaviylarni siquvga olishdi. Marvga yo'l olgan turkmanlar u yerning voliyi Anushtegin bilan to'qnashishdi va undan yengilib, cho'lga qochishdi. Marvda asir olingan 24 nafar turkmanlar Mas'udga jo'natilgach, uning buyrug'i bilan fillarga ezib o'ldirildi (Bayhaqiy, 1945:436–440).

NATIJA

Alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Arslon yabg'u Mahmud G'aznaviy tomonidan qo'lga olingach, saljuqiylar orasida birlik yo'qoldi. Jumladan, oldin Arslon yabg'uga bo'ysungan 4000 o'g'uz oilasi saljuqiylar tobeligida qolishni istamadi va Mahmud G'aznaviy roziligi bilan Xurosonga ko'chib o'tishdi. Ular Bolqon o'g'uzlari va Iroq o'g'uzlarining bir qismini tashkil etishardi. Natijada Saljuqiylar ularga itoatsiz tobelari sifatida qarashgan.

Movarounnahrda qolgan saljuqiylar oilasi Arslon yabg'uning Ali Tegin bilan o'matgan do'stona munosabatlarni saqlab qolishgan (I.Kafesoğlu, 1953:259–274; M.Köymen, 1957:170–178). Xususan, 1032-yil Dabusiylar Xorazmshoh Olintosh bilan bo'lgan jangida saljuqiylar Ali Tegin qo'shini safida edilar (Bayhaqiy, 1945:34). O'g'uz davlati raisligi Arslondan keyin Saljuqning nevaralaridan Yusufga o'tgan. Lekin bu paytda Yusufning otasi Muso hali tirik edi. Bu Yusufning shaxsiy fazilatlarini bilan bog'liq ko'rinadi.

1034-yilda Ali Tegin vafot etgach, hokimiyat uning qo'mondoni Qo'nush qo'lga o'tdi. Ammo, bu qo'mondon va saljuqiylar orasida xusumat kelib chiqdi (Bayhaqiy, 1945:470; 682). Natijada saljuqiylar Buxorodan Xorazmshoh Horun o'lkasiga yo'l olishgan. Ular Horunning otasi Oltintosh davridan beri qishlash uchun har yili Xorazmga borishardi. Sulton Mas'udga itoatsizlik e'lon qilgan Horun Xurosonni qo'lga kiritish uchun saljuqiylardan foydalanishni istardi.

Saljuqiylarning Xorazmga kelganidan xabar topgan Jand hukmdori Shohmalik katta qo'shin bilan cho'l yo'lidan borib, tongda ularga hujum qildi. Saljuqiylardan 7-8 ming kishi o'ldirilib, ayol va bolalari asir qilindi (Bayhaqiy, 1945:682). Ularning tirik qolganlari Jayhunni kechib o'tib, Raboti Namakda qo'nim topishdi (M.Köymen, 1957/2:19). Na Bayhaqiy, va boshqa tarixchilar Shohmalikning urug'i, qabilasi haqida ma'lumot berishgan. Faqat "Jome at-tavorix"da Shohmalik oxirgi o'g'uz yabg'usining o'g'li deb keltirilgan. O'g'uz yurtidan kelganlar saljuqiylar atrofida to'plandi va qisqa vaqt ichida ularning soni yana ortdi. Bu, shubhasiz, saljuqiylarning azaldan o'z yurtdoshlari orasida hurmat va obro'e-tiborga ega oila bo'lganiga dalolat qiladi.

Horun G'aznaviylar davlati vaziri tomonidan uyushtirilgan suisqad qurboni bo'lgach, Xorazmda boshqaruv uning ukasi Ismoil Handon qo'lga o'tdi. Natijada 1035-yil mayda saljuqiylar Xorazmni tark etib, Xurosonga ko'chib o'tishdi. Ular 10000 otliq atrofida bo'lib, Niso shahriga o'mashishgan va u yerdagi turkmanlar va xorazmliklarni siqib quborishdi (Bayhaqiy, 1945:470). Saljuqiylarning Xurosonga ketishlariga faqat Shohmalikning tazyiqlari va Horunning o'ldirilishigina sabab bo'lmagan. Ya'ni Xorazmdagi makonlarining noqulayligi hamda jozibador o'lka Xurosonni qiyinchiliksiz o'zlariga yurt qilish maqsadlari ham Xurosonga ko'chishlariga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin.

Bu paytda Saljuqning o'g'illaridan faqat Muso-gina tirik bo'lib, yabg'u unvonini olgan edi. Lekin, u keksayib qolganligi uchun o'g'li Yusuf Inonch yabg'u saljuqiylarni idora qilardi. Muso, To'g'ul va Choribeylar Xuroson devoni raisi Suriga maktub yuborishdi. Maktubda ular o'zlarini xalifaning tobelari sifatida ta'riflab, Xurosonga kelishlari sababini bayon qilishgan. Shuningdek, oralaridan biri sulton saroyida xizmat qilishi va buning evaziga Niso, Faroba viloyatlari o'zlariga tuhfa qilinishini, o'z navbatida saljuqiylar Bolqon tog'i, Dehiston,

Xorazm va Jayhun tarafidan bo'ladigan hujumlarni qaytarish, g'aznaviylar muzofotidan Iroq va Xorazm turkmanlarini haydab chiqarish majburiyatini olishlarini bildirishgan (Bayhaqiy, 1945:470-471; M.Köymen, 1957/2:50). Niso va Faroba shaharlari cho'l mintaqasida joylashganligi sababli saljuqiylar uchun qal'alardan ham mustahkam mudofaa vazifasini o'tardi. Shuningdek, Bolqon, Mang'ishloq hamda Sirdaryobo'yi o'g'uzlari bilan qo'shni-chilik aloqalarini o'rnatish imkonini berardi.

Saljuqiylarning Xurosonga kelganidan xabar topgan vazir Ahmad ibn Abdussamad: Shu paytgacha ishimiz cho'ponlar (Iroq turkmanlarini nazarda tutgan) bilan edi, endi esa o'lkalarni zabt etadigan amirlar keldi, deya iztirob chekkan edi (Bayhaqiy, 1945:470-471). Sulton Mas'ud saljuqiylarga qarshi hojib Beydo'g'du boshchiligidagi tarkibida fillar ham bo'lgan 17 000 kishilik qo'shin yubordi. 1035-yil 29-iyun saljuqiylar Niso yaqinida dashtlarda keng qo'llaniladigan usul – pistima yo'li bilan g'aznaviylar qo'shinini mag'lub etishdi. Bu jangda ham har doimgidek Dovud Choribey katta jasorat ko'rsatdi.

Niso jangidan so'ng ikki o'rtada sulh tuzilib, Sulton Mas'ud Dehistonni Choribeyga, Nisoni To'g'ulbeyga va Farobani Muso yabg'uga in'om qildi (Bayhaqiy, 1945:481-493; Gardiziy, 1937:80-81; Ibn Asir, 1987:238). Bu zafardan so'ng Iroq o'g'uzlarining bir qismi saljuqiylar safiga qo'shildi (Bayhaqiy, 1945:497). Shuningdek, Bolqon va Jayhun yo'llari ham ochilib, u yerlardan Xurosonga turkmanlar kela boshladi. Natijada 1036-yil saljuqiylar sulton Mas'udga elchi yuborib, ularning qaramog'idagi yerlar yangi ko'chib kelganlar hisobiga torlik qilayotgani va Marv, Saraxs, Obivard shaharlarining ham o'zlariga berilishini talab qilishgan (Bayhaqiy, 1945:505). Talablari rad etilgan saljuqiylar g'aznaviylarga qarshi hujumlarini yanada kuchaytirishdi. Sulton Mas'ud davlat arkoni tavsiyasiga binoan saljuqiylar tahdidiga barham berish uchun Xuroson tomon otlanarkan, lekin fikrini o'zgartirib, 1037-yil o'ktabrda g'azo niyatida Hindiston tomon yurdi.

Bu orada Iroq o'g'uzlaridan Buqa va Qizilbeylar Rayni, Go'ktosh esa Hamadonni egallashdi. Shuningdek, ular Qazvin, Urmiya (Ozarbayjon) shaharlari va Armanistonda talonchilik qilishdi. Ray va Hamadonni egallashda Iroq o'g'uzlariga Daylam amirlaridan Sova va buvayhiylardan Fano Xusrav ibn Majduddavla yordam berishgan (Ibn Asir, 1987:200). Yuqoridagi ma'lumotlardan o'g'uzlarning mohir jangchilar bo'lgani ko'rinib turibdi. Biroq Iroq

o'g'uzlarining maqsadi faqat talonchilik bo'lgan. Abbosiy xalifaning ularga yozgan maktubiga qaramay, o'g'uzlar talonchilik va bosqinlarini to'xtatishmagan. Zabt etilgan yerlarni xoh mustaqil xoh hukmdorga itoat qilib, tartib-intizom bilan idora qilish g'oyasi o'g'uz guruhlarida boshida turgan beylar uchun hali yot tushuncha edi. Bu beylardan Ray hokimi Qizilbeyni ma'lum ma'noda istisno qilishimiz mumkin. Chunki, u saljuqiylar bilan hamkorlik qilgan. Tarixchi Abulfarajning ta'kidlashicha, u To'g'rubeyning singlisiga uylangan, xalifaning maktubiga To'g'rub bilan birga javob maktubi ham yozgan (Abul Farac, 1945:296).

Sulton Mas'ud 1036-yil saljuqiylarning Xurosondagi hujumlarini bartaraf etish uchun 15000 kishilik qo'shin yuborgan edi. Lekin qo'shin qo'mondoni 3 yillik urinishlariga qaramay, biror natijaga erisha olmadi va buning aksiga 1038-yil mayda Saraxs yaqinidagi Talhi Obda saljuqiylar ulami mag'lub etishdi. Bu zafardan so'ng saljuqiylar To'g'rubey o'zlariga umumiy rahbar bo'lishiga ittifoq qilishdi. To'g'rubey ukasi Ibrohim Yinal (ular bir onadan tug'ilgan) ni 200–300 otliq bilan Nishopurga yubordi. Nishopur aholisi uni do'stona qarshiladilar va shaharda To'g'rubey nomiga "malik al-muluk" unvoni bilan xutba o'qildi.

Bir necha kundan so'ng Nishopurga kelgan To'g'rubeyning qo'lida tortilgan yoy va o'qdonida uchta o'q bor edi (Bayhaqiy, 1945:553). Yoy va uchta o'q-turkiy xalqlarda hukmdorlik ramzi bo'lgan. To'g'rubey shahar qozisi Saidning maslahatlariga javoban: "Biz bu yerda musofirmiz. Ajamlarning an'alarini bilmaymiz, maslahatlarini mendan ayama!" degan edi (Bayhaqiy, 1945:554). Nishopurda To'g'rubeyga xutba o'qilganidek, Marvda ham Choribey nomiga xutba o'qilgan va Saraxsga esa Muso yabg'u hokim bo'lgan.

Amirlari birin-ketin mag'lub bo'lgach, sulton Mas'ud o'zi qo'shinga bosh bo'lib, Xuroson tomon otlandi. Natijada saljuqiylar orasida sarosima boshlanib, To'g'rubey Iroq va Jurjon tomon ketish fikrini o'rtaga tashladi. Lekin Choribey Xuroson tark etilgan taqdirda sulton Mas'ud va uning da'vati bilan boshqa dushmanlar saljuqiylarni ta'qib qiladigan bo'lsa, qochish nihoya bilmasligini ta'kidlab, g'aznaviylar qo'shinining ham zaif taraflarini sanab o'tgan va qabiladoshlarini qolib jang qilishga ruhlantirgan. Natijada Choribeyning fikri inobatga olinib, jang qilishga qaror qilindi. 1039-yil Saraxs cho'lidagi jangda g'aznaviylar g'alaba qozongach, saljuqiylar yakkama-yakka olishuvlarni tark etib, ularga qarshi qo'qqisdan hujum

qilish taktikasini qo'llay boshlashdi. Shuningdek, saljuqiylar yo'ldagi quduqlarni egallab olib, g'aznaviylar qo'shinini suvsizlik bilan qiyshardir. Natijada qo'shini holdan toygan sulton Mas'ud eson-omon Hirotda yetib olish maqsadida saljuqiylarga sulh taklif qildi. Saljuqiylar son va harbiy texnika jihatidan ustun bo'lgan g'aznaviylarga qarshi kurashish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish zarurligini anglab, sulhga rozi bo'lishdi.

Sulton Mas'ud yoz bo'yi Hirotda puxta tayyorgarlik ko'rgach, saljuqiylar ustiga yurdi va ularni Faroba cho'ligacha taqib qildi. Saljuqiylar esa g'aznaviylar armiyasini holdan toydirish maqsadida faqat chekinishardi. Bu chekinish va ta'qib asosida har ikki taraf ham, ayniqsa, og'ir qurollangan g'aznaviylar qo'shini katta zahmat chekishgan. Hattoki, To'g'rubey kunlar davomida zirh va etigini yechmay, yostiq o'miga qalqonidan foydalangan (Bayhaqiy, 1945:600). Shu orada Xurosonda qahatchilik boshlanib, g'aznaviylar qo'shini oziq-ovqat, yem-xashak tanqisligi, suvsizlik hamda issiqdan aziyat chekarkan, bunga saljuqiylarning hujumlari ham qo'shildi. Kutilmaganda saljuqiylar ularga guruh-guruh bo'lib hujum qilar, tuyalar va gazlamalarni o'lja olib, ortlariga qaytishardi. Sulton Mas'ud Nishopur, Saraxs shaharlaridan o'tib, Marvga yaqinlashganidan xabar topgan saljuqiylar orasida yana qo'rtuv va sarosima boshlandi. Lekin Choribey g'aznaviylar qo'shini va ot-ulovlari cho'lida holdan toygani sababli ularni osonlikcha yengishlari mumkinligini ta'kidlagach, qolganlar ham uning fikrini ma'qullagan (Bayhaqiy, 1945:618; M.Köymen, 1958:36–37).

1040-yil 23-mayda g'aznaviylar qo'shini Marvning janubi-g'arbidagi Dandanakon qal'asi tomon yo'l olarkan, saljuqiylar ularga to'rt tarafdin hujum qilishdi. Shunga qaramay, g'aznaviylar qo'shini peshin mahali qal'aga yetib olishdi. Qal'a tashqarisida ikki taraf bir-biriga qarshi safga tizildi. G'aznaviylar qo'shini suvsizlikdan aziyat chekardi. Saljuqiylar g'aznaviylarga qarshi o'zlarining an'anaviy jang uslubi, "qurdus" (jami karodis) ni qo'llashdi. Ya'ni, qo'shin guruhlariga bo'linib jang qilardi. Qo'shinning bir qismi ma'lum muddat jang qilar va ortga qaytib, o'z o'mini boshqa guruhga bo'shatib berardi. Umaviylar davrida arablar bu jang taktikasini vizantiyaliklardan o'rganib, amalga kiritishgan edi (Gardiziy, 1937:86).

Jang chog'ida g'aznaviylarning turklardan tuzilgan muntazam qo'shinidagi 370 nafar askar saljuqiylar safiga qo'shildi. Shiddatli hujum natijasida g'aznaviylar o'rdasi safi buzilib, hind, arab va kurdlardan iborat qo'shin tarqalib ketdi va jang

maydonida sulton Mas'ud bilan birga bir necha qo'mondon va sanoqli mamluklarga qolgandi, xolos. Birozdan so'ng Mas'ud ham qochishga majbur bo'ldi. Saljuqiylar buyuk zafar qozondi. Ular 5 yillik mashaqqatli kurashlari natijasida o'z maqsadiga erishishdi. Choribey aytganidek, endi "butun jahon" ulamiki edi.

Shunday qilib, To'g'ulbey taxtga o'tirdi va Xuroson hokimiga aylandi (Bayhaqiy, 1945:620–629; M.Köymen, 1958:34–65). Najjada 1040-yilda rasman Saljuqiylar davlati yuzaga keldi.

XULOSA

Xulosa o'mida aytish mumkinki, Saljuq O'g'uz yabg'usining ayoli fitnasidan cho'shib, qabiladoshlari bilan Jandga kelib o'mashganidan keyin ham xavf-xatardan xoli bo'lishmadi. G'animat ilinjida somoniylarga qoraxoniylar Nasr Eloqxoniga qarshi kurashida yordam berishdi. Lekin Nasr Eloqxonning qasos olishidan xavfsirab, qoraxoniylar bilan ham ittifoq tuzishlariga to'g'ri keldi. Ularning dushmani Shohmalik Jandda qatliom uyushtirgach, saljuqiylar Buxoro muzofotiga ko'shib o'tishdi va qoraxoniylardan ajralib chiqqan Ali Teginning g'aznaviylar va qoraxoniylarga qarshi yurishlarida ishtirok etishdi. Eng achinarlisi Mahmud G'aznaviy Arslon yabg'uni hiyla yo'li bilan tutqunlikka mahkum qilgach, saljuqiylar orasida birlik yo'qolib, o'g'uzlar Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Bolqon va Dehiston hududlariga tarqalib ketishdi.

O'g'uz yabg'u davlati zavolga yuz tutgach, Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridagi o'g'uzlar to'p-to'p Xuroson hududlariga kelib, saljuqiylar atrofida birlashishdi. Natijada saljuqiylarning kuch-qudrati ortdi va 1040-yil Dandanakon jangida g'aznaviylarni mag'lub etishgach, rasman saljuqiylar davlat yuzaga keldi.

Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishi o'g'uz turklari tarixida muhim burilish nuqtasidir. Bu davlatning barpo etilishi bilan Islom olami ustidan siyosiy hukmronlik o'g'uzlar qo'liga o'tib, Anadolu va qo'shni davlatlar ularning yurtiga aylandi. X asr boshlarida Yaqin Sharqdagi musulmon mamlakatlari siyosiy tarqoqlikka yuz tutgan bir paytda Vizantiya imperiyasi qadam baqadam musulmonlar ta'sir doirasidagi yerlarni egallayotgandi. O'g'uz turklari ana shunday murakkab vaziyatda musulmonlar boy bergan hududlarni Vizantiyadan qaytarib olish bilan kifoyalanmay, balki uning Osiyo qit'asidagi tayanchi o'lkasi Anadoluni fath qilib, Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga sababchi bo'lishdi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bayhaqiy. (1945). Tarixi Bayhaqiy (تاریخ بیهقی). Tehron: G'ani Fayoz.
2. Abul Farac. (1945). Abul Farac tarihi. Çev. Ömer Riza Doğrul. 1.cilt. Ankara: Türk tarih kurumu basımevi.
3. Sümer F. (1935). Oğuzlar. Ankara: Ankara üniversitesi Dil ve tarih-coğrafya fakültesi yayınları.
4. Gardizi. (1937). Zaynul-axbor (زین الاخبار). Tehron: Ittihodiya.
5. Qazviniy H. (1960). Tarixi guzide (تاریخ گزیده). Tehron: A.Navoiy.
6. Ibn Asir. (1987). Al-Komil fit-tarix (الکامل فی التاریخ). J. 8. Bayrut: Dar al-Kutub al-ilmiyah.
7. Kafesoğlu İ. (1958). Selçuk'un oğulları ve torunları // Türkiye Mecmuası 13.
8. Kafesoğlu İ. (1953). Doğu Anadolu'ya ilk Selçuklu akını ve tarihi ehemmiyeti // Fuad Köprülü Armağanı.
9. Juzjoni. (1963). Tabaqoti nosiri (طبقات ناصری). J. 1. Kobul: Afg'oniston tarix jamiyati.
10. Qoshg'ariy M. (1960). Devonu lug'otut Turk. J. 1. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
11. Köymen M. (1957). Büyük Selçuklu imparatorluğunun kuruluşu I // Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi 15 (1–3).
12. Köymen M. (1957). Büyük Selçuklu imparatorluğunun kuruluşu II // Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi 15 (4).
13. M. Köymen. (1958). Büyük Selçuklu imparatorluğunun kuruluşu III // Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi 16 (3–4).
14. Pritsak O. (1977). Kara-Hanlar // İslam Ansiklopedisi. 6.cilt. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi.
15. Claude Cahen. (1949). le Malik-nâmeh et Vhiatoire des origins Seljukides //Oriens. Vol. 2, No. 1.
16. Kaşgarlı M. (1985). Divanı luga-it-Türk. Terc. B. Atalay. 1.cilt. Ankara: Türk tarih kurumu basımevi.
17. Reşidüddin. (2010). Câmî ut-tevârih: Selçuklu devleti. Çev. Göksu E., Güneş H. İstanbul: Selenge yayınları.
18. Husayniy S. (1933). (أخبار الملوكة السلجوقية) Axbor ad-davlat as-Saljuqiyya. Lohur: Panjob universiteti nashriyoti.
19. Yusuf Sh.M. (2017). Islom tarixi. J. 2. Toshkent: Hilol nashr.

REFERENCES

1. Bayhaqiy. (1945). Tarixi Bayhaqiy (تاریخ بیهقی). Tehron: G'ani Fayoz.
2. Abul Farac. (1945). Abul Farac tarihi. Çev. Ömer Riza Doğrul. 1.cilt. Ankara: Türk tarih kurumu basımevi.
3. F.Sümer. (1935). Oğuzlar. Ankara: Ankara üniversitesi Dil ve tarih-coğrafya fakültesi yayınları.
4. Gardizi. (1937). Zainul-akhbar (زین الاخبار). Tehran: Union.
5. Qazviniy H. (1960). Tarixi guzide (تاریخ گزیده). Tehron: A.Navoiy.

6. Ibn al-Athir. (1987). *Al-Kamil fit-tarikh (الكامل في التاريخ)*. Vol. 8. Beirut: Dar al-Kutub al-ilmiyah.
7. Cafesoglu I. (1958). Sons and grandsons of Selçuk // *Türkiyat Mecmuası* 13.
8. Cafesoglu I. (1953). The Early Seljuk Poetry and Historical Significance to Eastern Anatolia // *Fuad Köprülü Gift*.
9. Juzjani. (1963). *Tabaqati Nasiri*. Vol. 1. Kabul: Afghanistan Historical Society.
10. Koshghari M. (1960). Verbal dictionary Turk. Vol. 1. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
11. Köymen M. (1957). Büyük Selçuklu imparatorluğunun kuruluşu II // *Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi* 15 (4).
12. Köymen M. (1958). Büyük Selçuklu imparatorluğunun kuruluşu III // *Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi* 16 (3–4).
13. Pritsak O. (1977). *Kara-Hanlılar // İslam Ansiklopedisi*. 6.cilt. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi.
14. Claude Cahen. (1949). *le Malik-nâmeh et Vhisioire des origins Seljukides // Oriens*. Vol. 2, No. 1.
15. Kaşgarlı M. (1985). *Divanü lugat-it-Türk*. Terc. B. Atalay. 1.cilt. Ankara: Türk tarih kurumu basımevi.
16. Reşidud-din. (2010). *Câmi ut-tevârih: Selçuklu devleti*. Çev. E.Göksu, H.H.Güneş. İstanbul: Selenge yayınları.
17. S.A.Husayniy. (1933). (أخبارالدولة السلجوقية) *Axbor ad-davlat as-Saljuqiyya*. Lohur: Panjob universitety publishing house.
18. Hosseini S. (1933). (أخبارالدولة السلجوقية) *Akhbar ad-Dawlat as-Saljuqiyya*. Lahore: Panjab University Press.
19. Yusuf Sh. (2017). *İslom tarixi*. Vol. 2. Tashkent: Hilal publication.



**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
“МОТУРИДИЙЛИК” ЖУРНАЛИ**

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари, мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари, талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуктаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба кайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матүридизм

1/2023

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@moturidiy.uz

Нашриётнинг лицензия рақами АИ № 0011. 06.05.2019 йил.

Босишга 03.05.2023 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 ¼.

Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.

Нашр табағи 10,4. Буюртма № 06.

Баҳоси шартнома асосида.

“Ўзбекистон халқаро ислом академияси”

нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.

100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية

Jurnalga maqolalar qabul qilish
uchun maxsus veb-sayt:

 www.maturidijournal.uz

 +998971 244-35-36

 www.moturidiy.uz

   @moturidiyuz

 info@moturidiy.uz